O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI OLTINSOY TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko’chasi 8-uy, 190700, tel: (+99876) 47-77-516, oltinsoy_t@exat.uz, www.Oltinsoy.uz

2024 - yil 23 - fevral 66-8-108-Q/24 Oltinsoy tuman hokimligi

Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularga tegishli tirkamalar belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish quyidagi davriylikka muvofiq belgilansin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari - bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari)- ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

d) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

3. Mazkur qarorning 2-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta - 1 mart - 30 iyunda;

ikkinchi marta - 1 sentabr - 31 oktabrgacha o‘tkazilsin.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar - 31 dekab gacha o‘tkazilsin.

4. Tumanda texnik ko‘rikni o‘tkazish uchun tuzilgan komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 31-yanvardagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-son qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi nazarda tutilsin.

6.Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada

(texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

7. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

8.Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

9.Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

10. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

11. Majburiy texnik ko‘rik davomida komissiya tarkibida ish olib boruvchi xodimlarning doimiy ish joylaridagi oylik ish haqlari saqlanib qolinsin.

12. Mazkur qaror “Xalq va hayot” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

13. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Abdurayimov zimmasiga yuklansin.

Oltinsoy tumani hokimi **B.O.Maxmatrayemov**

Oltinsoy tuman hokimining
2024-yil 23-fevraldagi
66-8-108-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tumanda transport vositalari texnik ko‘rigini

o‘tkazishni tashkil etuvchi komissiya

T A R K I B I

Komissiya raisi :

N.Sobiddinov		Oltinsoy tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i

Komissiya raisi o‘rinbosari:

B.Abdurayimov	-	Oltinsoy tuman hokimining birinchi o‘rinbosari

Komissiya kotibi:

Lavozimiga ko‘ra	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXB katta inspektori

Komissiya a’zolari:

Lavozimiga ko‘ra	-	Surxondaryo viloyati transport boshqarmasi sektor mudiri
F.Safarov	-	Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i *(kelishuvga asosan)*
Lavozimiga ko‘ra	-	Tuman avtomotohavaskorlar ko‘ngilli jamiyati a’zosi *(kelishuvga asosan)*

Oltinsoy tuman hokimining
2024-yil 23-fevraldagi
66-8-108-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalarining 2024 yilgi majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish

J A D V A L I

T/r	Tashkilot nomi	Texnik ko'rikdan o'tkazish joyi	O'tkazish Sanasi	Transport soni	O'tkazish vaqti soati
1.Energetika va elektrlashtirish vazirligi kod 01013					
1	Elektr tarmoqlar korxonasi	Tashkilot hududida	06.03.2024 yil	2 ta	09 00-12 00 gacha
2.Neft va gaz sanoati milliy korparatsiyasi (Uz.neft.gaz)kod 01024					
2	Tuman gaz ta'minoti bo'limi	Tashkilot hududida	07.03.2024 yil	8 ta	09 00-12 00 gacha
3. Aloqa Vazirligi kod 03573					
3	Oltinsoy Qorliq telemunikatsiya bo'limi	Tashkilot hududida	08.03.2024 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
4	Pochta bo'limi	Tashkilot hududida	9.03.2024 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
5	Xalq va hayot gazetasi tahririyati davlat korxonasi	Tashkilot hududida	9.03.2024 yil	2 ta	14 00-16 00 gacha
4.Sog'liqni saqlash vazirligi kod 03873					
6	Oltinsoy tuman Tibbiyot birlashmasi	Tashkilot hududida	10.03.2024 yil	12 ta	09 00-12 00 gacha
7	DSEJM	Tashkilot hududida	11.03.2024 yil	3 ta	09 00-12 00 gacha
5.Oliy va maxsus urta ta'lim vazirligi kod 03903					
8	Oltinsoy tuman Xalq ta'lim muassasasi	Tashkilot hududida	14.03.2024 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
9	O'quv sport texnika klubi (KX kolleji)	Tashkilot hududida	15.03.2024 yil	8 ta 1ta yuk	09 00-12 00 gacha
10	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Tashkilot hududida	16.03.2024 yil	2 ta	09 00-12 00 gacha
11	Transport kolleji	Tashkilot hududida	17.03.2024 yil	3 ta	09 00-12 00 gacha
12	Oltinsoy t 2-sonli Kasb hunar maktabi	Tashkilot hududida	17.03.2024 yil	5 ta	09 00-12 00 gacha

13	Oltinsoy trans MChJ	Tashkilot hududida	20.03.2024 yil	2 ta	09 00-12 00 gacha
14	Oltinsoy Nur trans MChJ	Tashkilot hududida	21.03.2024 yil	2 ta	09 00-12 00 gacha
15	MEGA TRANS MChJ	Tashkilot hududida	22.03.2024 yil	1 ta (75/898TTF)	09 00-12 00 gacha
7.Mudofaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” jamiyati kod 04864					
16	Vatanparvar	Tashkilot hududida	23.03.2024 yil	7 ta	10 00-12 00 gacha
17	Avtohavoskorlar ko‘ngilli jamiyati	Tashkilot hududida	24.03.2024 yil	7 ta	10 00-12 00 gacha
18	Avto Ziyo Unitar korxonasi	Tashkilot hududida	27.03.2024 yil	7 ta	10 00-12 00 gacha
8. Markaziy bank kod 05054					
19	Xalq banki	Tashkilot hududida	28.03.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
20	Inkasatsiya	Tashkilot hududida	28.03.2024 yil	2 ta	08 00-12 00 gacha
9. Fermer xo‘jaliklari kodi 06444					
21	Xurshid ravnaqi fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	03.04.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
22	Ro‘ziboy fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	03.04.2024 yil	3 ta	08 00-12 00 gacha
23	Tilovmurod-Alisher fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	04.04.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
24	Bog‘bon Muhammad fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	05.04.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
25	Turob Berdimuratov fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	05.04.2024 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
26	Botosh Lochini fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	06.04.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
27	Feruz fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	07.04.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
28	Dehkonbobo fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	07.04.2024 yil	1 ta	14 00-15 00 gacha
29	Eshmuradbobo fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	10.04.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
30	Dug‘oba saxovati fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	10.04.2024 yil	1 ta	14 00-15 00 gacha
31	Chori Tangriqul fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	11.04.2024 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
32	“Egamberdi Qo‘shoqov” fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	11.04.2024 yil	3 ta	09 00-12 00 gacha
10. O‘z kommunal xizmat agentligi kodi 07344					
33	Obodonlashtirish boshqarmasi	Tashkilot hududida	12.04.2024 yil	4 ta (1 ta nosoz)	09 00-12 00 gacha

34	Oltinsoy tumani Toza hudud DUK	Tashkilot hududida	13.04.2024 yil	14 ta	09 00-12 00 gacha
11. O‘zbek Avtoyul DAK kodi 07304					
35	Oltinsoy tuman Yo‘llardan foydalanish UK	Tashkilot hududida	14.04.2024 yil	6 ta (1 ta nosoz)	08 00-12 00 gacha
12. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi kodi 08054					
36	Qishloq xo‘jalikkimyo AJ Oltinsoy tuman filiali	Tashkilot hududida	17.04.2024 yil	2 ta	08 00-12 00 gacha
37	Bobur MMTP	Tashkilot hududida	17.04.2024 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
38	Oltinsoy tumani Veterenariya Laboratoriyasi	Tashkilot hududida	18.04.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
39	“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Agroinspeksiya”	Tashkilot hududida	18.04.2024 yil	1 ta 270VAA	08 00-12 00 gacha
40	Sarbon Farm xususiy korxonasi	Tashkilot hududida	19.04.2024 yil	2 ta	08 00-12 00 gacha
13. Yog‘ moy va Oziq ovqat sanoati Assosiyasi kodi 08234					
41	Oltinsoy Savdo UChSTSJ MChJ	Tashkilot hududida	20.04.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
14. Davlat soliq qo‘mitasi kod 70414					
42	Tuman Soliq inspeksiyasi	Tashkilot hududida	21.04.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
43	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	Tashkilot hududida	21.04.2024 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
15. O‘z Agro Mash servis kodi 08074					
44	Oltinsoy tuman MTP OAJ	Tashkilot hududida	24.04.2024 yil	3 ta	08 00-12 00 gacha
45	Janub Bunyodkori MChJ	Tashkilot hududida	25.04.2024 yil	1 ta (nowo 75/635KAA)	08 00-12 00 gacha
46	ILXOM NODIR MChJ	Tashkilot hududida	26.04.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
16. Boshqa Vazirliklar kodi 09999					
47	Nurafshon Shabnam xususiy firmasi	Tashkilot hududida	27.04.2024 yil	2 ta	08 00-10 00 gacha
48	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash Oltinsoy tuman bo‘limi	Tashkilot hududida	02.05.2024 yil	1 ta (matiz 75/312AA)	09 00-12 00 gacha
49	“AZIYA PLAST OLTINSOY” SIChK	Tashkilot hududida	02.05.2024 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
50	Rustam xususiy korxonasi (GAZ)	Tashkilot hududida	03.05.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
51	Lobar KTSICh xususiy firmasi	Tashkilot hududida	04.05.2024 yil	4 ta	08 00-12 00 gacha
52	Norqobil Gaz Xususiy firmasi	Tashkilot hududida	04.05.2024 yil	4 ta	14 00-16 00 gacha

53	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	Tashkilot hududida	08.05.2024 yil	1 ta Damas 75/038ZAA	08 00-12 00 gacha
54	“OLTINSOY IBVEST” MChJ	Tashkilot hududida	09.05.2024 yil	2 ta kamaz 417 Yarim tirka	08 00-12 00 gacha
55	Bandlikka ko‘maklashish markazi	Tashkilot hududida	10.05.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
56	Yaxna Zilol MChJ	Tashkilot hududida	11.05.2024 yil	2 ta	08 00-12 00 gacha
57	Baxt Mash Surxon MChJ	Tashkilot hududida	11.05.2024 yil	2 ta	14 00-16 00 gacha
58	Oltinsoy Surxon Meva invest MChJ	Tashkilot hududida	12.05.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
59	“Jahongir Z.S.M” xususiy korxonasi	Tashkilot hududida	15.05.2024 yil	1 ta 75/576QAA	08 00-12 00 gacha
60	Abdirauf xususiy firmasi	Tashkilot hududida	15.05.2024 yil	2 ta	14 00-16 00 gacha
61	Otabek Baxt yuli xususiy firmasi	Tashkilot hududida	16.05.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
62	Muradjon sarbon xususiy korxonasi	Tashkilot hududida	16.05.2024 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
63	Mansurbek Otabek xususiy korxonasi	Tashkilot hududida	17.05.2024 yil	4 ta	09 00-12 00 gacha
64	Mexribonu Fayz MChJ	Tashkilot hududida	18.05.2024 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
65	“Azimjon Abdiraxmanovich” oilaviy korxonasi	Tashkilot hududida	18.05.2024 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
66	Muradjon Bunyodkor xususiy korxonasi	Tashkilot hududida	19.05.2024 yil	1 ta	14 00-15 00 gacha
67	Oltinsoy Sharob savdo IBUK	Tashkilot hududida	22.05.2024 yil	4 ta	09 00-12 00 gacha
68	Oltinsoy Veterenariya bo‘limi	Tashkilot hududida	23.05.2024 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
69	Oltinsoy hokimiyati	Tashkilot hududida	23.05.2024 yil	7 ta	14 00-16 00 gacha
70	Sulton sharbati MChJ	Tashkilot hududida	24.05.2024 yil	6 ta	09 00-12 00 gacha
71	Tamirchi Agrokurulish MChJ	Tashkilot hududida	25.05.2024 yil	6 ta	09 00-15 00 gacha
72	Xamro xojibek MChJ	Tashkilot hududida	26.05.2024 yil	2 ta	08 00-12 00 gacha
73	Oltinsoy Agrosug‘urta	Tashkilot hududida	01.06.2024 yil	1 ta	13 00-15 00 gacha
74	EAST-WEST SURXON qo‘shma korxonasi	Tashkilot hududida	05.06.2024 yil	1 ta	09 00-15 00 gacha
75	Kamol Kup tarmokli xususiy korxonasi	Tashkilot hududida	05.06.2024 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
76	Sobir Abdimuradov fermer xo‘jaligi	Tashkilot hududida	06.06.2024 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
77	Turum Almardanov xususiy korxonasi	Tashkilot hududida	07.06.2024 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha

78	Bo‘ribobo ko‘p tarmoqli xususiy korxonasi	Tashkilot hududida	08.06.2024 yil	1 ta	14 00-15 00 gacha
79	“ALTIMABIL GROUP” OOO	Tashkilot hududida	09.06.2022 yil	6 ta	09 00-12 00 gacha
80	Oltinsoy bog‘dorchilik va Agrosanoat Klaster	Tashkilot hududida	12.06.2024 yil	1 ta nowo 75/140ZAA	13 00-15 00 gacha
81	Farrux-Erkin xususiy firmasi	Tashkilot hududida	13.06.2024 yil	8 ta	09 00-12 00 gacha
82	“MILLIY FILM PRODUCTION” MChJ	Tashkilot hududida	15.06.2024 yil	2 ta	09 00-12 00 gacha
	JAMI			**220 ta**	